

XALQ TURMUSH TARZI HAMDA JAMIYATNING RIVOJLANISHIDA DINIY VA AXLOQIY QARASHLARNING O`RNI

*Ergasheva Dildora Salayitdinovna
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani
1-sonli Kasb-hunar maktabi, o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada axloq va iymon tushunchalariga doir muhim masalalarining ilmiy nazariy va jamiyatda tutgan o'rni falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, axloq falsafasining milliy va umumbashariy ahamiyati shaxsni har tomonlama tarbiyalashda axloq va iymon tushunchalarining o'rni masalalariga yangicha yondashishga urinilgan.

Kalit so'zlar: din, axloq, iymon, huquq, qadriyat, jamiyat, aql, davr

РОЛЬ РЕЛИГИОЗНО-НРАВСТВЕННЫХ ВЗГЛЯДОВ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Аннотация. В данной работе проведен философский анализ важнейших вопросов, касающихся понятий морали и веры, их роли в научной теории и обществе. Также была предпринята попытка по-новому подойти к вопросам национального и общечеловеческого значения философии морали, роли понятий морали и веры во всестороннем воспитании личности.

Ключевые слова: религия, мораль, Вера, право, ценность, общество, разум, эпоха.

THE ROLE OF RELIGIOUS AND MORAL VIEWS IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Abstract: This paper provides a philosophical analysis of the most important issues concerning the concepts of morality and faith, their role in scientific theory and society. An attempt was also made to approach the issues of the national and universal significance of moral philosophy, the role of the concepts of morality and faith in the comprehensive education of the individual in a new way.

Keywords: religion, morality, faith, law, value, society, reason, epoch.

Jamiyatning rivojlanish omillari – jamiyatda yangi elementlari paydo bo`lishiga yoki eski elementlarning yo`qolishiga hissa qo`shadigan sharoitlar, sabablar ko`rsatiladi, natijada jamiyat o`zgaradi, asta-sekin rivojlanadi.

Ushbu maqolada axloq va iymon tushunchalarining o`zaro o`xshashligi va inkori o`ziga xos xususiyatlari hamda ta'lim jarayonida o'rni shu mavzuga oid mahalliy asarlar asosida tahlil qilinadi.

Jamiyat rivojlanishining omillari orasida obyektiv omillar, ya'ni odamlar va ijtimoiy guruhlarning irodasi va ongli faoliyatiga bevosita bog`liq bo`lmagan shaxslar va jamiyatning irodasi, qiziqishi va ongli faoliyati va turli ijtimoiy guruhlarga bog`liq bo`lgan subyektiv omillar mavjud. Tabiat - jamiyat rivojida eng muhim obyektiv omil hisoblanadi. Bu jamiyatning rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'sir ko`rsatishi mumkin¹.

Masalan, eng qadimgi sivilizatsiyalar katta daryolar qirg`og`ida paydo bo`lgan (ular "Daryo sivilizatsiyasi" deb ataladi). Bu shuni anglatadiki, sivilizatsiyalarning butun hayoti suv bilan bog`liq bo`lib, ularning rivojlanishi ham aslida suvga bog`liq edi. Daryo sivilizatsiyalarida asosiy mashg`ulotlar qishloq xo`jaligi, chorvachilik edi. Biroq, tabiiy omillar, ya`ni toshqinlar yoki qurg`oqchilik sivilizatsiya yakuniga ham olib kelishi mumkin edi.

Tabiiy omillarning sivilizatsiyalar rivojlanishi va inqiroziga ta'siri haqidagi yorqin misol – Krit orolidagi Minoy sivilizatsiyasidir. Zero, bu yunon jamiyatni gullab-yashnashi qulay tabiiy sharoitlar bilan bog`liq edi va shu sabab uning o`limini vulqon otishi tezlashtirgan edi.

Jamiyatning rivojlanishi bundan tashqari yana bir necha omilga bog`liq bo`lib, bu jamiyatdagi shaxslarning dunyoqarashining, bilimining va bu orqali texnologiyalarning rivojlanishiga uzviy bog`liqdir. Quyida jamiyatning rivojlanishi yo`lidagi qadamlariga tegishli bir qancha terminlar keltiriladi:

- a) Progress (oldinga harakat, muvaffaqiyat)- bu jamiyat oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga, kam tartiblilikdan yanada tartibli va adolatli bo`lib rivojlanadi degan fikr;
- b) Regressiya – jamiyatning avvalgi holatiga nisbatan murakkab bo`lmagan, kamroq rivojlangan va kamroq madaniyatga ega rivojlanish g`oyasi;
- c) Stagnatsiya - rivojlanishning vaqtinchalik to`xtashi.

Rivojlanishda ham bir qancha mezonlar mavjud:

Taraqqiyot mezonlari haqida olimlar va faylasuflar shunday fikrlarni keltirishgan:

- 1) Kondorset - XVIII asrda paydo bo`lgan g`oyalarida aqliy rivojlanishni taraqqiyot mezoni deb hisoblagan;
- 2) Sen-Simon g`oyasi taraqqiyot mezoni – axloq. Barcha odamlar bir-biriga nisbatan birodar bo`lgan joyda jamiyat shunday bo`lishi kerak;
- 3) Schelling g`oyasi taraqqiyot – bu huquqiy tizimga bosqichma-bosqich yondashuv;
- 4) Gegel XIX asrdga oid g`oyalarida tarqqiyotni erkinlik ongida ko`radi.

¹ <https://www.yaklass.ru/p/obshchestvoznanie/8-klass/obshchestvo-kak-mnogoznachnaia-sistema-383889/evoliutciia-obshchestvennogo-razvitiia-381584/re-07b692c8-0db0-4121-8de0-56c0541e6788>

5) Marksning fikricha, taraqqiyot tabiatning elementar kuchlarini o`zlashtirish va ma'naviy sohada ijtimoiy uyg'unlik va tarqqiyotga erishish imkonini beradigan moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishi.

Zamonaviy sharoitda esa taraqqiyot:

- jamiyatning umrboqiyligi;
- hayot tarzi;
- ma'naviy hayot kabi mezonlar orqali tavsiflanadi.

Keltirilgan fikrlar asosida shuni aytishimiz mumkinki, jamiyatda axloq va diniy qarashlarning mutanosib turishi rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega bo`lishi, shaxs qaysi din vakili bo`lishiga qaramasdan o`zlari muqaddas sanagan kitoblaridagi axloqiy tushunchalarga jiddiy qarashlari va zamonning o`zgarishi bilan undagi g`oyalarni ongiy jihatdan o`zgartirmasdan zamonga integratsiyalash orqali amal qilishi kerakligi yaqqol ko`rinib turibdi.

Islom dinining muqaddas kitobi hisoblangan Qur'on Karimda shunday deyiladi:

“(Qo`l ostingizdagi) aqlsiz kimsalarga (ya’ni yosh ,nodon yetimlarga) Allah sizlar uchun turmush vositasi qilib qo`yan mollaringizni (ya’ni qo`llaringizdagi ularning mollarini) berib qo`ymangiz ,balki ularni o`sha mollandan yedirib kiydiring va ularga yaxshi so`zlar bilan muomala qiling! (Niso surasi,5 oyat).²

Bu oyatul karimadan tushunish mumkinki,

1. “mol davlatlaringizni axmoqona harakat qiladigan kimsalarga (aqli raso bo`lmaganlarga)” deb. Hali-hanuz jismoniy va aqliy yetuklik yoshiga to`lman yetim bolalarni qo`liga yaqinlaridan meros bo`lib qolgan o`z molk mulklarini ishonib topshirib bo`lmasligi.

2. Jamiyatda aqli noraso bo`lgan yosh yoki yoshi katta bir inson bo`lsa,unga tegishli o`zining mol mulki ham bo`lsa u insonga o`sha mol mulkini berib bo`lmasligi, balki unga tegishli bo`lgan mulkni tijorat yoki boshqa yo`llar bilan foydaga kirgizgan holda, uni yemoq ichmog`i, kiyim–kechagi va yotog`ini ta'minlab turilishi kerak. Yaxshi so`zlar deganda, yaxshi so`z bilan meros egalariga murojaat qilishlik va va'daga vafo qilish ma'nolari keltiriladi.

Injilda “O`z qavmdoshingni sev”, “Odam o`ldirma” degan da'vatlar asosiy qoidalar sifatida namayon bo`ladi. Budda ta'limoti jonlini jonsiz qilishni eng kata gunoh deb biladi³.

Jamiyat rivojlanishi Schellning aytgani kabi huquqiy tizimga qadamba qadam yondashuviga ham bog`liq. Bunda shaxs yashab turgan mamlakatida o`rnatilgan tartib

² Алоуддин Мансур. «Куръон-и Карим тафсири», Нисо сураси

³ Абдулла Шер, Баходир Хусанов. Ахлоқ фалсафаси. Нафосат фалсафаси. Тошкент – 2008 22-бет

qoidalarga so`zsiz bo`ysunishi ham muhim ahamiyatga ega jihatlardan biridir, diniy kitoblarda ham bu borada chaqiruvlar va tushuntirishlar mavjuddir.

Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi yomonlikdan qaytaruvchi ilm bu – axloqdir. Axloq ilmini bilgan, uqgan va uni amaliy tadbirlarida qo`llagan kishi o`zini tanigan va bilgan insondir, bundaylardan yomonlik yiroqdur. Rasuli Akram nabiyyi muhtaram: «Mezon tarozusiga qo`yiladurgan amallarning ichida yaxshi xulqdan og`irroqi yo`qdur. Mo`min banda yaxshi xulqi sababli kechasi uxlamasdan, kunduzlari ro`za tutub ibodat qilgan kishilar darajasiga yetar», – demishlar⁴

«Bir tog`ning o`rnidan ko`chib ketganini eshitsangiz, ishoningiz, ammo bir odamning xulqi boshqa bo`ldi deb eshitsangiz ishonmangiz»⁵, – demishlar.

Abdurauf Fitratning “Muxtasar Islom tarixi” asarining qismlarida tanlangan mavzu jamiyatda axloq va diniy qarashlarning mutanosib turishi rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega bo`lishi, shaxs qaysi din vakili bo`lishiga qaramasdan o`zlari muqaddas sanagan kitoblaridagi axloqiy tushunchalarga jiddiy qarashlari va zamonning o`zgarishi bilan undagi g`oyalarni ongli jihatdan o`zgartirmasdan zamonga integratsiyalash orqali amal qilish kerakligini tushuntirishga harakat qilingan. Bu fikrni tushuntirish orqali o`quvchilarga har bir jamiyat elementining o`zining shaxsiy diniy qarashlari mavjudligi, diniy erkinlik va bag`rikenglik prinsiplariga amal qilishlari kerakligini tushuntirib o`tilgan. Bu esa, tinglovchilarning jamiyatda dini, millati, tilidan qat’iy nazar shaxslarni hurmat qilishi kerakligini anglashlariga yordam beradi va chet elga qandaydir maqsadlardagi safarlari davomida “Madaniy shok” holatlariga tushib qolmasliklari

va bilib bilmay boshqa millat va din vakillarini ranjitmasliklariga poydevor yaratadi, degan umiddamiz.

⁴ Turkiy guliston yoxud axloq 2-tab’i, sana 1336 h./1917 m. Toshkent,2- bet

⁵ Turkiy guliston yoxud axloq 2-tab’i, sana 1336 h./1917 m. Toshkent,2-bet